

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik tekshirish uchun materiallar tayyorlash.

Mamarasulova Xolida Nodir qizi

Shukrullayeva Maftuna O'tkir qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU pedagogika va psexologiya fakulteti maxsus pedagogika:
logopediya yo'nalishi 514-22 guruh talabasi

Anatatsiya: *Ertangi kelajagimiz bu yosh avlodlarimizdir. Ularni barkamol sog'lom va bilimli zukko qilib tarbiyalash bizning burchimiz, ertangi kunimiz. Bizning yosh avlodimiz sog'lom va sog'lom fikriga ega bo'lishlari uchun ularni erta maktab yosh davridan pedagogik-psixologik tekshiruvlar olib borishimiz muxumdur*

Kalit so'zlar: *Pedagogik tekshiruvlar, Maktabgacha yoshdagi bolalar, Intelektual rivojlanishini; Ishtimoiy moslashuvchanligi; Emotsional holati; O'zini tutish xususiyatlarini; Yaratuvchanlik va kommunikativ qobiliyatlari baholanadi.*

Kirish. Bolalarning rivojlanish davrida pedagogik tekshiruvlar o'tgazish, ularni individual xususiyatlarini, ijtimoiy imotsional va intellektual rivojlanishini baholashda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar, ayniqsa o'qish va o'rganishning dastlabki bosqichlarida pedagogik-psixologik yordamga muhtoj bo'lishadi. Ushbu maqolada, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik tekshirish uchun qanday materiallar tayyorlash lozimligi haqida so'z yuritamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi — pedagogikaning maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o'rganuvchi sohasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi, bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafasat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog'liq. Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash o'zining bir qator me'zonlariga ega.

Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash ularning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzluksizligi va samaradorligini ta'minlovchi asoslardandir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda bo'lajak pedagoglarning ilmiy va uslubiy ta'minlanganligi, uning kasbiy

tayyorgarligi asosiy masalalardan sanaladi. Ayniqsa, bolalarning jismoniy xususiyatlari, antropometrik ko'rsatkichlari, aqliy-irodaviy jihatlari, ruhan maktabga tayyorligi ularning intellektual va jismoniy jihatdan maktab ta'limiga moslashishi, fanlarni zo'riqishlarsiz o'zlashtirishida ahamiyatli sanaladi.

Pedagogik-psixologik tekshiruvlar bolalarning rivojlanishini tahlil qilish va ular uchun mos o'quv rejalarini ishlab chiqishda muhim vositadir. Bu tekshiruvlar orqali bolalarning:

- Intellektual rivojlanishini;
- Ishtimoiy moslashuvchanligi;
- Emotsional holati;
- O'zini tutish xususiyatlarini;
- Yaratuvchanlik va kommunikativ qobiliyatlari baholanadi.

Bunday tekshiruvlar bolalar bilan individual ishlashni yo'lga qo'yishda ular uchun eng yaxshi pedagogik eng yaxshi metodlarni tanlashda yordam beradi. Bolalarni maktabga tayyorlashda bu boradagi metodik bilimlarga tayanish, aniq tizim va ketma-ketlikka asoslanish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
 - maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
 - bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
 - zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
 - maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
 - maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.
- Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:
- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
 - bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
 - bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
 - bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1-Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bolishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'ni o'quvchi bo'lish.

2-Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofdan mo'ljal olish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi.

Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi

3-Harakat tayyorgarligi;

— mayda motorika;

— katta harakatlarni amalga oshirish (qo'l, oyoq, tana).

4-O'quv faoliyatiga tayyorgarlik;

— kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish;

— topshiriqni mustaqil bajarish;

— chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishish.

Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z hatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfdan ofquvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.

Bir qator ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat har beshinchi birinchi sinf ofquvchisi jamoaga muammosiz qo'shiladi va deyarli darhol standart o'quv jarayoniga o'rganadi. Bo'lajak birinchi sinf o'quvchilarining qariyb yarmi, hatto oddiy bolalar bog'chalariga boradigan va yaxshi psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan, shuningdek, maktabga tayyorgarlik bo'yicha testlardan muvaffaqiyatli o'tgan, oxir-oqibat moslashish bilan bog'liq muammolarga duch keladi, asosan intizom va o'quv faoliyati bilan bog'liq. Boshqalar yo'qligida bu muammolarning sababi salbiy omillar (oilada salbiy ijtimoiy vaziyat, sog'liq muammolarining mavjudligi va boshqalar) - jamiyatning tavsiflangan ijtimoiy birligining o'yin komponentiga e'tibor qaratish. Bola, to'g'ri va oldindan tayyorlanmagan, o'zi uchun ham aqliy, ham ijtimoiy jihatdan yangi sharoitlarga yaxshi moslasha olmaydi.

Yuqoridagi barcha muammolarni faqat har tomonlama hal qilish mumkin, bu bolaga ta'lim va bilish jarayonida diqqatni to'g'ri joylashtirishga yordam beradi, uni ta'limdagi har qanday muvaffaqiyatga rag'batlantiradi, maktabdagi xatti-harakatlarning aniq intizomiy asosini shakllantiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy hatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalishi tarkib topa boshlaydi. Ushbu sifatning shakllanishi bolada bilish jarayonlarining faolligi bilan bog'liqdir.

Idrok. Kichik maktab yoshidagi bolalar idrokining o'tkirligi sofligi bilan farq qiladilar. O'quvchilarning idroki o'ziga xos bilimga tomoshabin tariqasida berilganlik bilan farq qiladi.

Diqqat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy hususiyatlari ixtiyoriy zaifligidadir. Kichik maktab yoshida diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Xotira. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira ta'limining ta'siri bilan ikki yo'nalishda rivojlanadi. So'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasining faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi.

Xulosa

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni pedagogik-psixologik tekshirish uchun materiallar tayyorlash, ular uchun individual yondashuvni yaratishda va rivojlanishlarini to'g'ri yo'naltirishda katta ahamiyatga ega. To'g'ri va samarali materiallar yordamida bolalarning pedagogik-psixologik

ehtiyotlariga javob berish, ularni ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin. Shuningdek, pedagoglar va psixologlar bolalarga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga va ularning salomatligi, rivojlanishi uchun zarur yordamni taqdim etish imkoniga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1-Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.NISHANOVA, N.G.KAJVQLOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT - 2018

2-Ontogenez psixologiyasi E,G'oziyev, Toshkent"NIF MSH"2020

3-Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.«Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya).- T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.

4.KyMaeBa, T. Y. (2022). OHJIABHH MYHOCAEATJIAP^ArH EErOHAJIAUiYBHHHr H^CTHMOHH IICHXOJIOrHK OMHJIAPH. Science and innovation, 1(B3), 428-431.

5. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 204-206.